



RAQAMLI MOLIYADA REGULYATORLIK MEXANIZMLARI VA IMKONIYATLARI

Bekchanova Dilarom Umarjanovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti


ugulim2020@gmail.com

Dolzarblik. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar moliya sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Jahon fintech bozori 2025 yilda 320 milliard dollarni tashkil etdi va 2030 yilga kelib 15-18% yillik o'sish sur'ati bilan 850 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. O'zbekistonda ham bu sohada sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2018 yilda 8 million kishigina onlayn moliyaviy operatsiyalar amalga oshirgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 30 million kishiga yetdi, ya'ni yillik 30% o'sish sur'ati qayd etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va 2022 yil 2 fevraldagi PF-60-son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni raqamli moliyani rivojlantirish va zamonaviy regulyatorlik tizimini joriy etishni ustuvor vazifalar qatoriga kiritdi.

O'zbekistonda raqamli to'lovlar jadal rivojlanmoqda. 2022 yilda to'lov operatsiyalari hajmi 116 trillion so'mni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 2.1 barobarga ko'p. Bank kartalari soni 2018 yildagi 19 milliondan 2022 yilda 34 millionga yetdi (79% o'sish). POS-terminal orqali raqamli to'lovlar hajmi 2025 yilda 22 milliard dollarni tashkil etdi, bu 3 yil ichida 3 barobarga oshganligini anglatadi. Markaziy Bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga 47 ta litsenziyalangan to'lov tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Biroq bu rivojlanish bilan birga yangi muammolar ham yuzaga keldi. Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra, moliya sektori boshqa sohalardan 300 marta ko'proq kiberhujumlarga duchor bo'lmoqda. 2025 yilda butun dunyo bo'yicha 343 million kishi kiberhujumlar qurboni bo'ldi.

Asosiy muammo shundaki, raqamli moliya juda tez rivojlanmoqda, lekin uni tartibga solish mexanizmlari sekin shakllanmoqda. Klassik moliya tizimi uchun ishlab chiqilgan qonunlar va qoidalar yangi texnologiyalarni to'liq qamrab olmaydi. Sun'iy intellekt, blockchain, DeFi platformalari va raqamli aktivlar uchun aniq regulyatorlik mexanizmlari yo'q. Shuning uchun raqamli moliyada yangi regulyatorlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash o'rtasida muvozanatni topish zamonaviy yondashuvlar - regulyatorlik sandbox, RegTech va sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etishni talab qiladi.

Muammo. O'zbekistonda raqamli moliyani tartibga solish sohasida bir qator jiddiy muammolar mavjud. Huquqiy baza to'liq emas - Markaziy Bank asosan bank xizmatlarini tartibga soladi, lekin fintech kompaniyalari, kriptoalyutalar va raqamli aktivlar uchun yetarli darajada ishlab chiqilgan qonunlar mavjud emas. 2024-2025 yillarda Markaziy Bank



yangi to'lov xizmatlari uchun birorta ham litsenziya bermadi, natijada Cloudpayments, PSP va Yurt Pay kabi kompaniyalar bozorni tark etdi. Bu regulyatorlik noaniqlik yangi bizneslar uchun to'siq bo'lmoqda.

Regulyatorlik organlari zamonaviy texnologiyalarni yetarlicha bilmaydi. Blockchain, sun'iy intellekt va DeFi platformalarini baholash va nazorat qilish uchun maxsus bilim va ko'nikmalar talab qilinadi. Hozirgi xodimlar klassik bank tizimini tartibga solishda tajribaga ega, lekin yangi texnologiyalarning xavf-xatarini to'g'ri baholay olmaydi. Kiberxavfsizlik masalasi ham jiddiy. Moliya sektori boshqa tarmoqlardan 300 baravar ko'proq hujumlarga duchor bo'lmoqda. Hindistonda BFSI (Bank va Moliya Xizmatlari) sektori har bir ilovaga o'rtacha 973,000 ta hujum oladi, bu sanoat o'rtachasidan 38% yuqori ko'rsatkich.

Monitoring va nazorat tizimlari zamonaviy emas. Real vaqtda tranzaksiyalarni kuzatish, shubhali operatsiyalarni avtomatik aniqlash tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan. Xalqaro tajribalarni mahalliyashtirish ham qiyin. Singapur, Buyuk Britaniya va Estoniya kabi rivojlangan davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning o'z murakkabliklari bor. Aholining moliyaviy savodxonligi past. Ko'p odamlar raqamli moliya xizmatlarining xavf-xatarini tushunmaydi va bu firibgarlik holatlarini ko'paytirmoqda. Innovatsiya va nazorat o'rtasida muvozanat yo'q. Qattiq qoidalar fintech kompaniyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, yumshoq qoidalar xavf-xatarlarni oshiradi.

Maqsad. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda raqamli moliyani samarali tartibga solish uchun zamonaviy regulyatorlik mexanizmlarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga mos regulyatorlik tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, innovatsiya va moliyaviy barqarorlikni muvozanatlash, iste'molchilarni himoya qilish hamda raqamli moliya sohasida xavfsiz muhit yaratish usullarini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, Singapur, Buyuk Britaniya va Estoniya raqamli moliyani tartibga solishda eng ilg'or mamlakatlar hisoblanadi. Singapurda 2016 yildan boshlab regulyatorlik sandbox ishlaydi va 50 dan ortiq fintech kompaniya o'z mahsulotlarini real mijozlarda, lekin nazorat ostida sinab ko'rdi. Buyuk Britaniyada FCA raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus bo'lim tashkil etdi va 2014 yildan beri 800 dan ortiq kompaniyaga yordam berdi. Estoniya e-residency dasturi orqali 100 mingdan ortiq xorijiy tadbirkorga raqamli moliya xizmatlaridan foydalanish imkonini berdi. Mastercard hisobotiga ko'ra, QR-onlayn to'lovlar hajmi 2020-2022 yillarda yillik 119% sur'atda o'sdi va umumiy qiymat 1,500% ga oshdi.

O'zbekiston uchun 3 bosqichli regulyatorlik sandbox modeli ishlab chiqildi. Sandbox yangi fintech mahsulotlarni cheklangan muhitda, real mijozlar bilan, lekin qattiq nazorat ostida sinab ko'rish imkonini beradi. Tavsiya etiladigan model: dastlab ariza berish va baholash (2 oy), keyin sinov davri (6-12 oy, maksimal 1000 mijoz), oxirida natijalarni baholash va to'liq litsenziya berish yoki rad etish. Sandbox ishtirokchilari ba'zi talablardan

vaqtincha ozod qilinadi, lekin iste'molchilarni himoya qilish qoidalariga qat'iy rioya qilishi shart.

RegTech texnologiyalari regulyatorlik nazoratini avtomatlashtirish imkonini beradi. Real vaqtda tranzaksiyalarni monitoring qilish tizimlari, shubhali operatsiyalarni avtomatik aniqlash, sun'iy intellekt yordamida firibgarlikni bashorat qilish modellari joriy etilishi kerak. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, AI asosidagi firibgarlikni aniqlash tizimlari moliyaviy firibgarlikni 90% gacha kamaytiradi. Jahon Iqtisodiy Forumi esa sun'iy intellekt 2030 yilga kelib moliya kompaniyalariga yiliga 1 trillion dollargacha tejash imkonini berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu texnologiyalar nazorat xarajatlarini 50-70% ga kamaytiradi va xatolarni sezilarli darajada qisqartiradi.

Barcha raqamli moliya platformalari uchun minimal kiberxavfsizlik standartlari belgilandi. Ikki bosqichli autentifikatsiya majburiy qilinishi, ma'lumotlarni AES-256 standarti bo'yicha shifrlash, yiliga kamida 2 marta xavfsizlik auditi o'tkazish, kiberhujumlarga qarshi himoya tizimlari (firewall, DDoS himoya) o'rnatish talab qilinadi. Foydalanuvchilarni firibgarlikdan himoya qilish uchun o'qitish dasturlari ham amalga oshirilishi zarur. Ushbu standartlarni joriy etish firibgarlik holatlarini 40-50% ga kamaytirishi mumkin, bu esa O'zbekiston moliya tizimining ishonchliligini oshiradi.

Raqamli moliya sub'ektlari uchun 3 toifali litsenziya tizimi taklif etildi. Oddiy toifaga to'lov xizmatlari va pul o'tkazmalari kiradi (litsenziya 1 oyda, 50 million so'm to'lov). O'rta toifaga onlayn kreditlesh va investitsiya platformalari mansub (litsenziya 3 oyda, 200 million so'm to'lov). Murakkab toifaga kriptovalyuta birzhallari va raqamli bank xizmatlari kirib, litsenziya 6 oyda 500 million so'm to'lovga beriladi. Har bir toifa uchun aniq talablar, kapital talablari va nazorat darajasi belgilandi. Bu tizim yangi kompaniyalarning bozorga kirishini osonlashtiradi va regulyatorlik organlariga xavf-xatarlarga mos tartibda nazorat o'rnatish imkonini beradi.

Aholining raqamli moliya xavf-xatarlarini tushunishi uchun milliy moliyaviy savodxonlik dasturi ishlab chiqildi. Dastur doirasida maktablarda 7-11 sinflarda moliyaviy savodxonlik darslari, onlayn bepul kurslar, televizion ko'rsatuvlar va ijtimoiy tarmoqlarda kompaniyalar o'tkaziladi. Fintech kompaniyalar uchun mijozlarni majburiy o'qitish talabi belgilanadi. Dastur 3 yil ichida aholining kamida 60% ni qamrab olishi rejalashtirilgan. Raqamli moliyani samarali tartibga solish uchun xalqaro hamkorlik ham zarur. OECD ma'lumotlariga ko'ra, faqat 59% davlatlar to'liq ma'lumotlarni himoya qilish qonunlarini qabul qilgan, bu esa xalqaro miqyosda kelishuvlarga erishishni qiyinlashtirmoqda.

Xulosalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda raqamli moliya jadal rivojlanmoqda. 2018-2022 yillarda onlayn tranzaksiyalar foydalanuvchilari soni 8 milliondan 30 millionga o'sdi (30% yillik o'sish). Bank kartalari soni 79% ga oshib 34 millionga yetdi. To'lov operatsiyalari hajmi 116 trillion so'mni tashkil etdi. Biroq regulyatorlik mexanizmlari bu o'sishdan orqada qolmoqda. 2024-2025 yillarda yangi to'lov xizmatlari uchun birorta ham litsenziya berilmadi va bir qator kompaniyalar bozorni tark etdi. Xalqaro tajribalar regulyatorlik sandbox, RegTech va kiberxavfsizlik standartlari

raqamli moliyani samarali tartibga solishning asosiy vositalari ekanligini tasdiqlaydi. Sun'iy intellekt asosidagi firibgarlikni aniqlash tizimlari 90% gacha samarali va 2030 yilga kelib moliya kompaniyalariga 1 trillion dollar tejash imkonini beradi.

Innovatsiya va nazoratni muvozanatlash nihoyatda muhim. Qoidalar innovatsiyani to'xtatmasligi va bir vaqtning o'zida xavfsizlikni ta'minlashi zarur. Moliya sektori boshqa tarmoqlardan 300 marta ko'proq kiberhujumlarga duchor bo'lib, 2025 yilda 343 million kishi qurbon bo'ldi. Aholining moliyaviy savodxonligi pastligi firibgarlik holatlarini ko'paytirmoqda va bu muammoni hal qilish uchun milliy dastur zarur. Regulyatorlik organlarini zamonaviylashtirish, xodimlarni o'qitish va texnologik jihozlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xalqaro hamkorlik ham zarur, chunki faqat 59% davlatlar to'liq ma'lumotlarni himoya qilish qonunlarini qabul qilgan.

Amaliy takliflar. 2026 yilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki huzurida Regulyatorlik Sandbox markazi tashkil etilishi tavsiya etiladi. Markaz fintech startaplarga o'z mahsulotlarini 6-12 oy davomida maksimal 1000 mijoz bilan sinab ko'rish imkonini beradi. "Raqamli moliya to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilinishi zarur, unda fintech kompaniyalar, kriptovalyutalar, raqamli aktivlar va onlayn moliyaviy xizmatlarni tartibga solish qoidalari aniq belgilanadi. Singapur, Buyuk Britaniya va Estoniya tajribasiga asoslanib, 3 toifali litsenziya tizimi joriy etilsin.

Markaziy Bankda Raqamli Innovatsiyalar departamenti tashkil etilishi va 50 nafar mutaxassis ishga qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Departament RegTech tizimlarini joriy etish, sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini yaratish va xalqaro tajribalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. 2026-2028 yillarga mo'ljallangan "Moliyaviy savodxonlik" milliy dasturi tasdiqlanishi kerak. Dastur doirasida maktablarda 7-11 sinflarda maxsus darslar, onlayn platformalar va ommaviy axborot vositalari orqali kampaniyalar o'tkaziladi, maqsad 3 yilda aholining 60% ni qamrab olish.

Raqamli moliya platformalari uchun minimal kiberxavfsizlik standartlari belgilanishi va majburiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi talab qilinadi. Ikki bosqichli autentifikatsiya, AES-256 shifrlash, yiliga 2 marta xavfsizlik auditi va AI asosidagi firibgarlikni aniqlash tizimlari majburiy bo'lishi kerak. EAEC, Osiyo Taraqqiyot Banki va Jahon Banki bilan regulyatorlik sohasida hamkorlik shartnomalar imzolanishi va xorijiy mutaxassislarni taklif qilish dasturi ishlab chiqilishi zarur. Fintech kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari joriy etilishi - birinchi 3 yil davomida foyda solg'idan 50% chegirma va innovatsion g'oyalar uchun grant dasturlari yaratilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi PF-60-son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

- 
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. Yillik hisobot 2022. -- T., 2023. -- 124 b.
 4. Mastercard. Fintech Market Uzbekistan Report. -- December, 2023. -- 78 p.
 5. World Economic Forum. The Global Risks Report 2024. -- Geneva, 2024. -- 96 p.
 6. International Telecommunication Union. Measuring digital development: Facts and Figures 2023. -- Geneva, 2023. -- 132 p.
 7. Financial Stability Board. FinTech and Market Structure in Financial Services: Market developments and potential financial stability implications. -- Basel, 2023. -- 65 p.
 8. Monetary Authority of Singapore. FinTech Regulatory Sandbox Guidelines. -- Singapore, 2022. -- 42 p.
 9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Digital Finance and Financial Inclusion. -- Paris, 2023. -- 89 p.
 10. Statista Research Department. Digital Payments in Uzbekistan - Statistics & Facts. - - 2024. Available at: www.statista.com
- 